O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-
SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

Ro'yxatga olindi: № BD-60220500 2024 yil "10" 03		"TASDIQLAYMAN" SámDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__" _____

SIYOSAT FALSAFASI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220500 – Falsafa

Fan/modul kodi	Oquv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
SF 1305	2025-2026	3	4
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Tanlov fan	O'zbek		4 soat

1.	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
	Siyosat falsafasi	50	70	120

	II Fanning maqsadi (FM)
2	Fanni o'qitishdan maqsad: mazkur fan siyosat hodisasining falsafiy xususiyatlarini ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda siyosatning genezisi, tarixiy evolyusiyasi, ijtimoiy hayotni tashkil etish va boshqarishdagi o'rni va mavqeini xolisona yoritishga qaratilgan. Dastur davlat qurilishi va boshqaruvi, demokratik institutlarni shakllantirish va xavfsizlik muammolari o'z ichiga olgani bilan ilmiy tadqiqotchilar va oliygoh talabalari uchun mo'ljallangan.
3	Fanni o'qitishning vazifalari – maxsus fanlardan o'qitiladigan ma'ruza va olib boriladigan amaliy mashhulotlarga tayyorgarlikning nazariy, tashkiliy, metodik hamda ruhiy (psixologik) jihatlari haqida ma'lumot berish; Interaktiv usulda o'qitishning afzalliklarini o'rgatish; Yangi pedagogik texnologiyalarning turli shakllarini qiyosiy tahlil qilish; Pedagogik texnologiyalarni malakaviy amaliyotda qo'llashni joriy qilish va talabalarda mustaqil faoliyat uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat

	Fan mazmuni
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**
	Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)
M1	**Siyosat falsafasining predmeti, maqsadi va vazifalari** Siyosat falsafasi fani predmeti, maqsad va vazifalari va amal qilish shart-sharoitlari. Siyosatning siyosat falsafasining ob'ekti ekanligi. Siyosiy falsafa va siyosat falsafasini o'rtasidagi farq. Siyosat falsafasining ijtimoiy-siyosiy fanlarda tutgan o'rni. Mustaqillik va siyosat falsafasi. Siyosat falsafasi jamiyatni siyosiy o'z-o'zini tashkil etish tamoyillari to'g'risidagi fan ekanligi.
M2	**Siyosat falsafasining rivojlanish bosqichlari: Sharq.** Siyosiy hayot va siyosiy qarashlar tarixi. Siyosiy ta'limotlarning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari. Siyosat falsafasi va o'rta asr Sharq mutafakkirlarining siyosiy qarashlari. A.Temur, A.Navoiy va boshqalarni siyosiy qarashlarining o'ziga hos jihatlari. Mustabid tuzum davri siyosati.
M3	**Siyosat falsafasining rivojlanish bosqichlari: G'arb** Antik davr siyosat falsafasi. Platon va Aristotelning insoniyat jamiyati o'z-o'zini tashkil etish shakllari to'g'risida. Yangi davr G'arb siyosiy qarashlari. Hozirgi zamon G'arb siyosat falsafasining rivojlanishi.

M4	**Siyosat - shaxs ijtimoiylashuvining natijasi.** Siyosat - ijtimoiy hayot ko'zgusi. Siyosiy ong tushunchasi, shakllanish omillari. Siyosat falsafasida shaxs va uning siyosiy ongi. Tarixda shaxsning roli. Siyosiy ijtimoiylashuv.
M5	**Siyosiy madaniyat siyosat falsafasining asosiy kategoriyasi** Siyosiy madaniyatning mazmun va mohiyati. Siyosiy madaniyatning funksiyalari. Siyosiy madaniyat va siyosiy an'analar, rahbar siyosiy madaniyati, neglizmning paydo bo'lishi.
M6	**Davlat- siyosatning predmeti.** Davlat siyosat falsafasining kategoriyasi sifatida. Davlat va uning mohiyati haqidagi qarashlar. O'zbekiston dunyoviy, demokratik va huquqiy davlat sifatida. Davlat va jamiyat o'rtasidagi farq. N.Makiavellining "Humkdor" asarida davlat tushunchasini yoritikishi.
M7	**Hokimiyat taqsimlanishi - siyosiy hodisa.** Hokimiyatlar uyg'unligi va o'zaro mutanosibligi. Siyosatning davlat, hokimiyat institutlari bilan bog'liqligi. Siyosat falsafasi va hokimiyat. Hokimiyat legitimligini saqlash. Kratalogiya – hokimiyat haqidagi fan. Yangi O'zbekistonda hokimiyatni taqsimlanishi. Kuch va tiyib turish san'ati.
M8	**Saylov tizimi va siyosat.** Majoritar, proporsional va unitar saylov sistemasi. Ko'ppartiyaviylik, uning ijobiy va salbiy jixatlari. Aralash saylov tizimi. O'zbekistonda saylov tizimi. Demokratik saylovlar ehtiyoji va sharqona mentalitet. Saylov tizimida milliy va umuminsoniy jihatlar. Amaliy siyosat va siyosiy nazariya. Siyosiy model. Amaliy siyosatda empirik va nazariy bilimlar dialektikasi. Siyosiy nazariyaning bashorat qilish funksiyasi. Siyosiy ekspertiza va siyosiy amaliyot.
M9	**Siyosat falsafasida tashqi siyosat kategoriyasining o'rni va roli** Planetar siyosiy jarayonlar va milliy davlat tashqi siyosati. Milliy davlat tashqi siyosati samaradorligining asosiy omillari. Global siyosat va milliy xavfsizlik siyosati. Dunyo taraqqiyotining falsafiy, siyosiy tahlili. Rivojlanish yo'nalishlari. *Milliy xavfsizlik siyosatining mafkuraviy asoslari va prinsiplari.* Siyosat falsafasi rivojida yangicha qarashlarning shakllanish imkoniyatlari. Dunyo yaxlitligi muammosi. Barqarorlik va uning rivojlanish istiqbollari.
M10	**Globalizatsiya, regionlizatsiya va integratsiya jahon siyosiy jarayonlarning bosh tendensiyasi** Globalizatsiya va jahon mafkuraviy manzarasining o'zgarishi. Hozirgi davrda jahon siyosiy maydonida globallashuv jarayoni. Integratsiyalashuv tendensiyasi. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi. Mintakaviy integrasiya va globalizasiya jarayonlari: XXI asr. Jahonda ko'p qutbli siyosiy tartiblar.
M11	**Siyosat: erkinlik va liberallashuv** Siyosat, erkinlik va erkinlashish munosabatlari. Erkinlikning mohiyati. Erkinlik ijtimoiy tushuncha sifatida. Erkinlik to'g'risidagi qarashlar. Erkinlik va tenglikni o'zaro munosabati. O'zbekistonda jamiyat xayotini erkinlashtirish va liberallashtirish strategiyasi. *Siyosiy axloq.* Axloqiy-siyosiy fikrlar tarixi, siyosiy zo'ravonlikni tushunishning asosiy yondashuvlari, zo'ravonlik va fuqarolik itoatsizligi tushunchasi, fuqarolik itoatsizligining funktsiyalari, zo'ravonlik siyosiy maqsadlarga erishish usuli sifatida, adolatli urush

	prinsiplari, xalqaro munosabatlarda etikaning umume'tirof etilgan tamoyillari
M12	**Siyosat va iqtisodiyot** Siyosat va iqtisodiyot soxalarning o'ziga xos ko'rinishlari. Dominant va determinant haqidagi bahslar. Davlatlarning iqtisodiy vazifalari. Huquqning asosiy muammolari. Huquq bilan siyosatni bohliqligi. Halq hokimiyati konsepsiyasi. B. Konstantning halq suverenligi konsepsiyasi. Nemis huquq maktabi. Anglo-amerikan huquq maktabi. Huquqiy davlat qurishning muammolari.
	III. Mashg'ulotlar shakli: Seminar
S1	Siyosat falsafasining predmeti, maqsadi va vazifalari
S2	Siyosat falsafasining rivojlanish bosqichlari: Sharq.
S 3	Siyosat falsafasining rivojlanish bosqichlari: G'arb
S4	Siyosat - shaxs ijtimoiylashuvining natijasi.
S5	Siyosiy madaniyat siyosat falsafasining asosiy kategoriyasi
S6	Davlat- siyosatning predmeti.
S7	Hokimiyat taqsimlanishi - siyosiy hodisa.
S8	Saylov tizimi va siyosat.
S9	Amaliy siyosat va siyosiy nazariya
S10	Siyosat falsafasida tashqi siyosat kategoriyasining o'rni va roli
S11	Milliy xavfsizlik siyosatining mafkuraviy asoslari va prinsiplari
S12	Globalizatsiya, regionlizatsiya va integratsiya jahon siyosiy jarayonlarning bosh tendensiyasi
S13	Siyosat: erkinlik va liberallashuv. Siyosiy axloq. Siyosat va iqtisodiyot.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
"Siyosat falsafasi" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi (68)

№	Mavzu nomi	Axborot manbai
1.	Siyosat falsafasining predmeti, maqsadi va vazifalari	[A 1.1.] - 7-11 betlar [A 1.5.] - 21-31 betlar
2.	Siyosat falsafasining rivojlanish bosqichlari: Sharq.	[A 1.2.] - 24-50 betlar. [A 1.1.] - 7-15 betlar
3.	Siyosat falsafasining rivojlanish bosqichlari: G'arb	[A 1.3.] - 102-115 betlar. [A 1.4.] - 6-20 betlar
4.	Siyosat - shaxs ijtimoiylashuvining natijasi.	[A 1.4.] - 14-20 betlar. [A 1.5.] - 10-15 betlar

5.	Siyosiy madaniyat siyosat falsafasining asosiy kategoriyasi	[A 1.5.] - 16-18 betlar. [A 2.18.] - 23-35 betlar
6.	Davlat- siyosatning predmeti.	[A 1.5.] - 16-20 betlar [A 2.18.] - 23-35 betlar
7.	Hokimiyat taqsimlanishi - siyosiy hodisa.	[A 1.1.] - 168-189 betlar. [A 2.20.] - 17-44 betlar...
8.	Saylov tizimi va siyosat.	[A 1.2.] - 155-168 betlar. [A 1.5.] - 18-21 betlar.
9.	Amaliy siyosat va siyosiy nazariya	[A 1.3.] - 441-458 betlar. [A 1.1.] - 168-189 betlar..
10.	Siyosat falsafasida tashqi siyosat kategoriyasining o'rni va roli	[A 1.1.] - 198-211 betlar [A 2.20.] - 164-178 betlar...
11.	Milliy xavfsizlik siyosatining mafkuraviy asoslari va prinsiplari	[A 1.2.] - 150-174 betlar. [A 2.20.] - 164-178 betlar.
12.	Globalizatsiya, regionlizatsiya va integratsiya jahon siyosiy jarayonlarning bosh tendensiyasi	[A 1.3.] - 603-625 betlar [A 2.20.] - 164-178 betlar...
13.	Siyosat: erkinlik va liberallashuv	[A 1.3.] - 30-39 betlar. [A 2.20.] - 119-134 betlar
14.	Siyosiy axloq	[A 1.3.] - 121-147 betlar [A 2.20.] - 207-322 betlar.
15	Siyosat va iqtisodiyot	[A 1.3.] - 11-46 betlar [A 1.5.] - 26-30 betlar

Izox: adabiyotlarni konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, slaydlar va prezentasiya shaklida taqdimot qilinadi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)** **Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:** - siyosat falsafasining xususiyatlari; ilmiy va ijodiy qiziqishlarni yaratishning ahamiyati; o'qitishning passiv, aktiv va interaktiv shakllarining mazmuni; tanqidiy tafakkur tushunchasi; o'qitishning assosiativ metodlari; o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy metodlari; bilimni baholash mezonlari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;*** siyosat falsafasi fanini interaktiv shakldagi o'qitishda talaba va talaba amaliyoti o'rtasidagi o'zaro tasirning mavjudligi; tanqidiy tafakkurning talabaning tarbiyalash va o'qitishdagi ahamiyati; o'qitishning innovasion metodlari; o'qitishning assosiativ metodlari; talabalarni Keys-stadis metodi asosida o'qitish haqida ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***; aktiv shakldagi o'qitishda o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligi; tanqidiy tafakkurning xarakterli belgilari; talabalarning guruhlardagi faoliyati; talabalar bilimini baholash va nazorat qilish tizimi kabilarni ***bilishi va ulardan foydalana olish malakasiga ega bo'lishi kerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnoligiyalari va metodlari:** ma'ruzalar;

	interfaol keys-stadilar; “Aqliy hujum” metodi; “T-jadval”, “Venna” tahlil metodi va boshqa interfaol metodlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to’liq o’zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**ASOSIY ADABIYOTLAR:** 1. Samadov A.R. Siyosat falsafasi. Darslik. Samarqand. 2024. – 230 bet. 2. Anvar Qodirov A. Siyosat falsafasi. Monografiya. -T.: TDYI. 2005. -124 bet. 3. Ergashev I. Siyosat falsafasi. –T., “Akademiya”, 2004. 130 bet. 4. Odilqoriyev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. - T: 2011. 5. Pugachyov V.P., Solovyev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. -T:, Yangi asr avlodi, 2004. **QO’SHIMCHA ADABIYOTLAR:** 1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. -T.: Xalq merosi, 1993. 2. Ismoilov Z.I. O’zbekiston modernizasiyalash va demokratik taraqqiyot sari. T.: Adolat, 2005. 3. Kaykovus. “Qobusnoma”. – T.: “O’qituvchi” nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 272. 4. Komilov N. Jamiyat qurilishi va ijtimoiy boshqaruv. T. Akademiya. 2007. 5. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. -T.: O’zbekiston, 2007. 6. Nazarov K, Xolbekov A., Umarova N. Siyosiy boshqaruv. Boshqaruv sosiologiyasi, psixologiyasi va akmeologiya asoslari -T. Akademiya. 2007. 7. Nizomulmulk. “Siyosatnoma” (Siyar ul-mulk). – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2017. – B. 304. 8. O’zbekiston va xalqaro tashkilotlar. -T.: Akademiya. 2005 9. Ochildiyev A. Millatlararo totuvlik - barqarorlik va taraqqiyot omili. T. Akademiya. 2005. 10. Odilqoriyev X.T. Ikki palatali parlament sharoitida qonun. T.: 2005. 11. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. T. Akademiya.2005 12. Qirg’izboyev M. Fuqarolik jamiyati institutlari.T.: Akademiya. 2006 **AXBOROT MANBALARI (SAYTLAR):** www.lex.uz, www.ziyonet.uz, www.gov.uz, www.usaid.gov, www.faylasuf.uz, http//www.intencia.ru, http://www.anthropology.ru, http://www.filosofia.ru, http://www.falsafa.dc.uz,http://www.phenomen.ru, http://www.lib.ru/FILOSOF O‘zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy veb sayti www.gov.uz
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv uslubiy Kengashining 2024 yil “___” _____dagi -son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ul:** A.Samadov – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti, Falsafa va milliy g’oya kafedrasi mudiri (DSc) professor
9.	**Taqrizchilar:** A.Aymatov- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani (ichki) Respublika Ma'naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti bo‘limi boshlig‘i, siyosiy fanlar doktori (DSc) (tashqi) Musayev M

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova _____

Falsafa va milliy g‘oya kafedra mudiri **prof. A.Samadov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Q. Aymatov**

SamDU o‘quv ishlari bo’yicha prorektor **prof. A.Soleev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasida o‘tiladigan “Siyosat falsafasi” fanidan tuzilgan fan dasturiga

Taqriz

“Siyosat falsafasi” fan dasturida talabalarda qadimgi dunyodan hozirgi davrgacha evolyusiyaviy tarzda rivojlanayotgan siyosat, unga doir asosiy konsepsiyalar bilan tanishtirish ochib berilgan.

Fan dasturida fanning vazifasi – mazkur fan siyosat hodisasining falsafiy xususiyatlarini ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda siyosatning genezisi, tarixiy evolyusiyasi, ijtimoiy hayotni tashkil etish va boshqarishdagi o‘rni va mavqeini xolisona yoritishga qaratilgan. Dastur davlat qurilishi va boshqaruvi, demokratik institutlarni shakllantirish va xavfsizlik muammolari o’z ichiga olgani bilan ilmiy tadqiqotchilar va oliygoh talabalari uchun mo‘ljallangan.

Talabalar istiqbolda geosiyosatning mazmun-mohiyati, uslublari, vazifalari bilan tanishtirish, siyosiy jarayonlarning mohiyati, tarkibi, qonuniyatlarini ko’rsatib berish, muayyan geografik makon ustidan nazorat o’rnatishning turlari, shakllari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini ko’rsatib bera oladilar. Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan siyosiy ta’limotlarning tadrijini ko’rsatib berish, yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan yondashuvlarini ochib berish, geosiyosiy jarayonlarning amalga oshirilishida axborot-mafkuraviy xurujlarning xususiyatlari haqida ma’lumotni qayta ishlab, ularning dolzarb muammolari va ilmiy tafakkur tarzining mohiyati xususida chuqur bilim olish, hamda ularda o’z-o’zini anglash va to’g’ri fikrlash mahorati, ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

“Siyosat falsafasi” fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo‘yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun ta’lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani, (DSc) **Aymatov A.Q.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasida o‘tiladigan “Siyosat falsafasi” fanidan tuzilgan fan dasturiga

Taqriz

Ushbbu fan dasturi oliy ta’lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o’tiladigan “Siyosat falsafasi” fanining mazmuni va o’tilishi tartibini, talabalar tomonidan o’zlashtirilishi lozim bo’lgan bilim hamda ko’nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi.

Fan bo’yicha tuzilgan o’quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o’quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko’nikmalariga qo’yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o’quv fanning maqsad va vazifalarini belglab berish o’quv dasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yaratiladigan o’quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o’qituvchiga esa pedagogik mo’ljalini to’g’ri belgilash imkonini beradi. Ta’lim amalyotida o’quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo’l bilan tuzilgan o’quv dasturlari ta’limning mazmuni yoki o’quv materiallari o’qitishning keng bosqichda yuksakroq darajada takrorlash ko’zda tutiladi. Tizimli usuldagi o’quv dasturlarida o’quv materiallari fan mantig’iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi. Ta’limning o’quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o’quv qo’llanmalar, ko’rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to’la namoyon bo’ladi.

Dasturda “Siyosat falsafasi” fani yo’nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ma’ruza, amaliy va seminar mashg’ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko’rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta’lim shakllari va mavzulari, fanni o’qitish natijalari, ta’lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo’shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan. Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko’nikma va malakalariga qo’yilgan talabalar, bo’lajak pedagoglarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o’z ichiga olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko’nikma va malakalariga qo’yilgan talabalar, bo’lajak pedagoglarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o’z ichiga olgan.Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu o’quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o’quv dasturlariga qo’yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va tavsiya etaman.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar boshlig‘i, siyosiy fanlari **M.Musayev**